

“FOTIHA” SURASIDAN KEYIN “OMIN” AYTISHNING HUKMI

Sabrina Salimova

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi

+998904126645

sabsalimova6645@gmail.com

Annotatsiya. So'ngi yillarda jahonda yuz berayotgan turli xil muvosiiz to'qnashuvlar insonlarni ogoh bo'lishga undaydi. Hozirgi davrga kelib ijtimoy tarmoqlar orqali adashgan oqimlarning g'arazli g'oyalari keng yoyilmoqda. Xususan, soxta salafiy, hashaviy va vahhobiylik kabi adashgan oqim vakillari xoss oyat va hadislarni o'zlari uchun hujjat sifatida keltirib, vasila qilgan insonni shirkda ayblamoqda. Natijada, yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lmagan ba'zi shaxslar ularning yolg'on g'oyalariga ergashib ketmoqda. Bu esa dunyoning turli burchaklarida istiqomat qilib kelayotgan musulmonlar orasida turli nizolar avj olishiga sabab bo'lmoqda. Lekin Alloh taolo O'z fazli ila ularga qarshi ilmiy va asosli raddiyalar berib, odamlarning dinini sof saqlashda buyuk xizmatlar qilgan zabardast ulamolarni chiqarib qo'ydi.

Kalit so'zlar. Qur'on, hadis, fiqh, Musannaf, sunnat, maxfiy, jahriy, fiqhiy mazhab, omin lafzi, Xavorij, mo'tazila, karromiya.

Abstract. The various irreconcilable conflicts that have been taking place in the world in recent years have encouraged people to be vigilant. In the current era, the malicious ideas of misguided movements are widely spread through social networks. In particular, representatives of misguided movements such as false Salafi, Hashavi, and Wahhabism are using specific verses and hadiths as evidence for themselves and accusing the person who conveyed them of polytheism. As a result, some individuals who do not have sufficient knowledge and skills are following their false ideas. This is causing various conflicts to flare up among Muslims living in different parts of the world. But Allah Almighty, by His grace, has brought forth powerful scholars who have given scientific and well-founded refutations against them and have done great services in preserving the purity of the religion of the people.

Keywords: Quran, hadith, fiqh, musannaf, sunnah, maxfi, jahri, Fiqh school, Amin word, khawarij, mu'tazilah, karromiya.

Аннотация. В последние годы различные непримиримые конфликты в мире побуждают людей к осознанности. К настоящему времени вредоносные идеи ошибочных течений широко распространяются через социальные сети. В частности, представители ложных сект, таких как лжесалафизм, хашавизм и ваххабизм, обвиняют создавшего их человека в ширке, цитируя в качестве

документов для себя специальные аяты и хадисы. В результате некоторые люди, не обладающие достаточными знаниями и навыками, следуют своим ложным идеям. Это является причиной возникновения различных конфликтов среди мусульман, проживающих в разных частях света.

Ключевое слово. Коран, хадис, фикх, тусаннаф, суннат, вахфий, джахри, школа юриспруденции, аминь, хаваридж, мутазила, карромия

KIRISH

Xavorij, mo'tazila, karromiya kabi adashgan firqalari yo'q bo'lib ketgan bo'lsada, ularning "merosxo'rlari" boshqa nomlar ostida hali hamon harakatda. Ular xuddi oldin o'tgan ota-bobolari yo'lini tutib, ixtilof, fitna-fasod chiqarish bilan ovora. Afsuski, adashgan toifalarning soxta da'volariga ishonib, ularning ta'sir doirasiga tushib qolayotgan insonlar ham uchrab turibdi. Ularning orasida yoshlarning borligi juda ham achinarli. Hali bir dona ko'chat ekib jamiyatga foyda keltirmagan kimsalarning qo'liga qurol olib, begunoh insonlar hayotiga zomin bo'lishi, obod joylarni vayron qilishi islom dinining barcha ta'limotlariga zid.

Adashgan toifalarga qarshi turib, ularning soxta da'volariga ilmiy raddiyalar bera oladigan, o'tgan buyuk ajdodlarining munosib avlodlari bo'lgan ulamolar bor.

ADABIYOTLARNI O'RGANISH

Mazkur mavzu islom fiqhi va tafsir ilmlari nuqtayi nazaridan ko'plab asarlarda turlicha yoritilgan. Xususan, hanafiy, shofe'iy, molikiy va hanbaliy mazhablariga mansub olimlarning fikrlarida "omin"ni baland (jahriy) yoki past (sirriy) aytish masalasida tafovut mavjud. Abu Hanifa (r.a) rahnamoligida shakllangan hanafiy mazhabi manbalarida, jumladan, "Badoyi' as-sanoyi'" (al-Kasani), "al-Hidoya" (Burhoniddin Marg'inoniy) kabi fiqhiy kitoblarda imom va muqtadiy "omin"ni sirriy aytishi afzal ko'riladi.

Shuningdek, shofe'iylar nazarida esa "omin"ni imom va jamoat baland ovozda aytishi sunnat hisoblanadi. Bu boradagi asosiy dalillar hadis va sahobalar amali asosida sharhlangan bo'lib, Imom Navaviy va Ibn Hajar Asqaloni kabi shofe'iy olimlar o'z tafsir va fiqhiy risolalarida buni ta'kidlaydilar.

Tafsirga oid manbalarda — masalan, "Tafsir at-Tabariy", "Tafsir al-Qurtubiy" va "Tafsir al-Alusiy"larda ham "omin"ning hukmi, lafziy ma'nosi va o'qilishi haqida turli sharhlar berilgan. Zamonaviy olimlardan Shayx Ibn Usaymin, Shayx Albaniy va Yusuf Qardaviy kabi ulamolar bu borada o'z ijtihodlarini bildirgan.

Mavzuga doir ushbu adabiyotlarni tahlil qilish orqali ushbu maqolada har xil mazhablarning dalillarini solishtirish, ularning asosiy nuqtalarini aniqlash va amaliy xulosalarga kelish maqsad qilingan.

ASOSIY QISM

Namozda Fotiha surasidan keyin “omin”ning aytilishiga barcha mazhab ulamolari birdek ittifoq qilishgan va ularning nazdida namozda fotiha surasidan keyin “omin”ni aytish sunnat hisoblanadi. Ular ushbu soʻzlariga quyidagi hadisi sharifni dalil qilib keltirishadi:

عن أبي هريرة رضي الله عنه أن رسول الله صلى الله عليه وسلم قال : { إذا أمن الإمام فأمنوا ، فإنه من وافق تأمينه تأمين الملائكة : غفر له ما تقدم من ذنبه }
 { Agar imom o'qib bo'lgandan keyin o'qib bo'lganlar ham o'qib bo'lgan bo'lsa, ularning o'qib bo'lgan mag'firat qilinadi, dedilar. }

Abu Hurayra (r.a)dan rivoyat qilinadi: “Payg‘ambar (s.a.v): “Qachon imom (Fotiha surasini o‘qib bo‘lgandan keyin) omin desa, sizlar ham “omin” denglar. Chunki kimning ominni farishtalarning ominiga muvofiq kelsa, uning o‘tgan gunohlari mag‘firat qilinadi”, dedilar”. (Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Imom Molik rivoyat qilgan)¹.

Ushbu hadisni ominni jahriy aytish sunnat degan ulamolar dalil qiladilar. Agar jahriy aytmaganlarida u kishiga ergashuvchilar ominni aytish kerakligini bilmagan bo‘lardi. Ta’lim berish uchun ham jahriy aytganlar².

Ominni ovoz chiqarmasdan aytish sunnat degan ulamolar bu hadisga quyidagicha javob berganlar. Payg‘ambarimiz (s.a.v.): Qachon imom “Omin” desa sizlar ham “Omin” denglar, degan gaplarida ochiq oydin ominni ovoz chiqarib aytishga dalolat yo‘q. Ulamolar Nabiy (s.a.v.)ning ushbu hadisidagi: “Qachon imom “Omin” desa sizlar ham “Omin” denglar, degan soʻzlarini majozan deyishgan. Ya’ni imom omin deyishni iroda qiladigan o‘rinda “Omin” denglar, degan ma’no tushiniladi. Chunki yuqorida o‘tgan boshqa hadisda Nabiy (s.a.v.): “Qachon imom: “G‘oyril mag‘duubi alayhim va laddoolliyn”, desa: “omin”, denglar”, deganlar. Bu ikki hadisni o‘rtasini jamlaydigan bo‘lsak, imom “G‘oyril mag‘duubi alayhim va laddoolliyn”ni aytib, “omin”ni aytadigan o‘rinda imomga ergashgan kishi ham “omin”ni aytadi. Bir ish qilishni iroda qilgan kishiga nisbatan o‘sha ishni qildi yoki o‘sha ishni qilsa, deb majozan aytish Qur’onda ham mavjud:

إِذَا قُمْتُمْ إِلَى الصَّلَاةِ

“...qachon namozga tursanglar...”, degan soʻziga o‘xshaydi. Bunda “qachon namozga turishni iroda qilsanglar”, degan ma’noda tushuniladi⁴.

Ominni jahriy aytish sunnat degan ulamolar Abu Hurayraning ushbu gaplarini ham dalil sifatida keltirishadi:

(ترك الناس التأمين وكان رسول الله صلى الله عليه وسلم إذا قال (غير المغضوب عليهم ولا الضالين) قال آمين حتى يسمعها أهل الصف الأول فيرتج بها المسجد)

¹ <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/raddiya-fotiha-surasi-dan-keyin-omin-ni-maxfiy-aytish>

² Abu Sulaymon Ahmad ibn Muhammad al-Xattobiy. Maolim as-sunan. — Halab: Tobaqotul alamiyya, 1932. — 223 b.

³ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. — Toshkent: Sano standart, 2021. — 108 b

⁴ Shayx Nuriddin Xoliqnazar. Fiqh va aqidaga oid itilofli masalalar yechimi. — Toshkent: Matbaachi, 2024.— 91 b.

“Odamlar “Omin”ni tark qilishdi. Vaholanki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon “G‘oyril mag‘duubi alayhim va laddoolliyn”, aytalar: “omin”, derdilar. Hatto birinchi saf ahli uni eshitar, u bilan masjid larzaga kelardi”⁵.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning “Omin” deganlarini birinchi saf eshitib, masjid larzaga kelishi haqidagi bu hadisning sanadida ham matnida ham muammo bor. Uning sanadida Bishr ibn Rofe’ bo‘lib, Imom Buxoriy: “Uning hadisiga ergashilmaydi”, deganlar.

Hadisning matnidagi muammoga kelinsa: “U bilan masjid larzaga kelardi”, degan jumla “Hatto birinchi saf ahli uni eshitar edi”, degan jumlagacha xilofdir. Chunki masjid larzaga keladigan darajada ovoz bo‘lsa, uni faqat birinchi safdagilar eshitmagan bo‘lar edi. Imomga yaqin turgan yoki uning yonida turgan imomga iqtido imomning maxfiy o‘qigan narsalarini gohida eshitishi mumkin. Bu bilan jahriy qiroat qildi deyilmaydi. Nabi (s.a.v.) sahobalarga peshin namozini o‘qib berganlarida ba’zan Fotihadan keyingi suraning bir yoki ikki oyatlarini eshittirib qo‘yardilar. Ma’lumki, maxfiylikning eng kami o‘zi va o‘ziga yaqin turgan kishining eshitishidir.

Agar bir yoki ikki kishi eshitsa, u jahriy bo‘lavermaydi. Bizning nazdimizda bu boradagi barcha hadislar “Omin”ni ta’limi uchun aytilganiga yoki roviyning ba’zilari eshitganini mutlaq qilib rivoyat qilgan deb aytiladi⁶.

Hanafi mazhabida har qanday namozda maxfiy aytiladi. Shofe’iy va Hanbaliy mazhablarida qiroati maxfiy bo‘lgan namozlarda omin ham maxfiy, ovoz chiqarmay, o‘zi eshitadigan darajada aytiladi, qiroati oshkora namozlarda omin ham oshkora aytiladi, deyilgan⁷.

Buni hukmi barcha fiqhiy kitoblarimizda bayon qilingan. Hanafi va molikiy mazhabida “omin” ni maxfiy aytish sunnatligi aytilgan bo‘lsa, shofeiy va hanbaliy mazhablarida jahriy (ovoz chiqarib) aytish sunnatligi ta’kidlangan.

O‘rta Osiyo xalqlari ming yillardan beri hanafi mazhabiga amal qilib keladi. Ahli sunna val-jamoa sanalgan to‘rt fiqhiy mazhab ichidan hanafi mazhabiga amal qilish bizning diyorda vojib darajasiga yetgan. Shuni ko‘p ulamolar ta’kidlaydilar. Chunki bu mintaqada boshqa mazhab olimlari ham, kitoblari ham topilmaydi⁸.

Fotiha surasini qiroat qilgandan keyin “omin” aytiladi. Omin Allohning ismlaridan biridir. Uning ma’nosi “Allohim bizdan buni qabul qilgin”. Bu fikr Hasan Basriydan ham rivoyat qilingan⁹.

⁵ Shayx Nuriddin Xoliqazar. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. — Toshkent: Matbaachi, 2024. — 90 b.

⁶ Shayx Nuriddin Xoliqazar. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. — Toshkent: Matbaachi, 2024. — 92 b.

⁷ <https://mirarabmadrasa.uz/oz/news/150>

⁸ <https://mirarabmadrasa.uz/oz/news/150>

⁹ Abu Husayn Ahmad ibn Foris ibn Zakariyyo ar-Roziy. Hilyatul fuqaho. — Bayrut: Sharikatul muttahida, 1983. — 77 b.

Hanafiy ulamolar namozda “Fotiha” surasidan keyin, “omin”ni maxfiy (ovoz chiqarmasdan) aytishga bir qancha dalillarni keltirib o‘tishgan: Alloh taolo Qur’oni karimda duoni maxfiy qilishga buyurgan:

ادْعُوا رَبَّكُمْ تَضَرُّعًا وَخُفْيَةً إِنَّهُ لَا يُحِبُّ الْمُعْتَدِينَ

“Rabbingizga zorlanib va xufyona (ovozsiz) duo qilingiz! Zero, U (duoda va boshqada) haddan oshuvchilarni yoqtirmagay”¹⁰.

Ulamolarimiz “omin” ni maxfiy aytish mandub ekanligiga oyati karimadan dalil keltaradilar. Unga ko‘ra “omin” lafzi duodir. Uning ma’nosi “ijobat qil”, ya’ni “duoni qabul qil” demakdir.

“Fiqhi Kaydoniy”da “Ya Amiyn” Alloh taoloning ismlaridan biridir, ya’ni bizning duoyimizni ijobat qilgin degani deyilgan¹¹. Omin so‘zi mad va tashdidsiz talaffuz qilinadi. Agarda mim harfida tashdid bilan o‘qisa, namozi fosid bo‘ladi. Imom Abu Yusufga ko‘ra fosid bo‘lmaydi, degan ulamolar ham bor¹².

Demak, “omin”ni ichda aytilsa, mazkur oyatga amal qilgan bo‘linadi. Hadisidan dalil:

عَنْ عَلْقَمَةَ بْنِ وَاثِلٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَنْ أَبِيهِ: "أَنَّهُ صَلَّى مَعَ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ فَلَمَّا بَلَغَ غَيْرِ الْمَغْضُوبِ عَلَيْهِمْ وَلَا الضَّالِّينَ قَالَ: آمِينَ وَأَخْفَى بِهَا صَوْتَهُ" (رواه الإمام أحمد والإمام أبو داود الطيالسي والإمام أبو يعلى الموصلي والإمام الدارقطني والإمام الحاكم)

Alqama ibn Voil otalaridan rivoyat qiladilar, otalari Payg‘ambarimiz (s.a.v) bilan namoz o‘qidilar. Payg‘ambarimiz “g‘oyrul mag‘dubi alayhim valad dolliyn” ga yetganlarida ominni ovoz chiqarmasdan aytdilar (Imom Ahmad, Imom Abu Dovud, Imom Abu Ya’lo, Imom Doraqutniy, Imom Hokim rivoyatlari)¹³.

Shofei mazhabida ominni jahriy aytiladi. Dalil sifatida Voil ibn Hajardan kelgan hadisni keltirishadi:

سَمِعْتُ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَرَأَ: (غَيْرِ الْمَغْضُوبِ عَلَيْهِمْ وَلَا الضَّالِّينَ) وَقَالَ آمِينَ، وَمَدَّ بِهَا صَوْتَهُ

Voil ibn Hajardan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vassallam “g‘oyrul mag‘dubi alayhim valad dolliyn”ni o‘qib ovozlari chiqarib “omin” dedilar¹⁴.

Ushnu hadisni hanafiy ulamolar ta’lim berish uchun ovoz chiqarib aytganlar deb tafsir qilishadi.

“Omin” ni maxfiy aytish sunnatligiga sahobai kiromlarning so‘zlari va amallari ham dalil bo‘ladi.

¹⁰ A’rof surasi, 55-oyat

¹¹ Lutfulloh Nasafiy. Fiqhi Kaydoniy. — Toshkent:Toshkent islom universiteti, 2010. —54 b, Abu Husayn Ahmad ibn Foris ibn Zakariyyo ar-Roziy. Hilyatul fuqaho. — Bayrut: Sharikatul muttahida, 1983. — 77 b.

¹² Lutfulloh Nasafiy. Fiqhi Kaydoniy. — Toshkent:Toshkent islom universiteti, 2010. —54 b.

¹³ <https://mirarabmadrassa.uz/oz/news/150>

¹⁴ Faxriddin Usmon ibn Ali Zayaliy Hanafiy. Tabyiynul haqiq sharhi kanzil daqiq. — Pokiston. Maktabatul imdadiyya. — 113 b.

عَنْ أَبِي وَائِلٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ: "كَانَ عَلَيَّ وَابْنُ مَسْعُودٍ لَا يَجْهَرَانِ بِبِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ وَلَا بِالتَّعَوُّذِ وَلَا بِأَمِينٍ" (رواه الإمام الطبراني¹⁵)

Abu Voil (r.a)dan rivoyat qilinadi, u zot aytadilar: “Ali va Ibn Mas’ud (r.a) “(namoz ichidagi) Bismillahir rohmanir rohiym” ni ham, “a’uuzu” ni ham “omin” ni ham ovoz chiqarib aytmas edilar” (Imom Tabaroniy rivoyati)¹⁶.

Rasululloh (s.a.v) bilan doimo birga yurgan Hazrati Ali va Abdulloh ibn Mas’ud (r.a) kabi nihoyatda ilmiy sahobiylarning “omin” ni ichlarida aytishlari ham kuchli dalil hisoblanadi.

Boshqa bir rivoyatda Hazrati Umar (r.a)ning ham “omin” ni ichlarida aytib namoz o‘qiganlari ta’kidlanadi. Hanafiy ulamolar huddi shu ma’noda, boshqa sahobai kiromlarning rivoyatlarini ham keltirganlar¹⁷.

Hadisi sharifda Payg‘ambarimiz (s.a.v) bu haqida shunday deydilar: “Duoning yaxshisi maxfiysidir” (Ibn Hibbon “Sahih” da rivoyat qilgan).

عَنْ إِبْرَاهِيمَ النَّخَعِيِّ قَالَ: "أَرْبَعٌ يُخْفِيهِنَّ الْإِمَامُ التَّعَوُّذُ وَبِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ وَاللَّهُمَّ رَبَّنَا لَكَ الْحَمْدُ وَ(أَمِينٌ)" (رواه الإمام عبد الرزاق في مُصَنَّفِهِ وَإِسْنَادُهُ صَحِيحٌ)

Ibrohim Naxaiydan rivoyat qilinadi: “To‘rt narsani imom ovozini chiqarmasdan aytadi: “A’uzu billahi minash shaytonir rojim”, “Bismillahir Rohmanir Rohim”, “Robbana lakal hamd” va “Omin”” (Imom Abdurrazzoq “Musannaf” nomli kitobida rivoyat qilgan, isnodini sahih)¹⁸.

Boshqa manbalarda ushbu hadis Umar ibn Xattob (r.a)dan rivoyat qilingan. Bulardan boshqa ko‘plab sahobarlardan qilingan rivoyatlarda, ba’zilar 5 ta boshqalari esa 3 ta narsani imom maxfiy aytadi deb rivoyat qilingan, ularning hammasida esa ominni maxfiy aytishni zikr qilishgan. Chunki omin duo hisoblanadi. Agar uni ham jahriy aytilsa, eshitgan odam uni ham Qur’ondan deb o‘ylashi mumkin. Bu ishdan qaytarilgani uchun ham mushaflarda yozilmagan¹⁹.

“Omin” lafzi Qur’ondan emas. “A’uzu billahi minashshaytonir rojiym” esa Qur’onda kelgan, Alloh taolo Qur’on o‘qiganda uni aytishni vojib qilgan. Shunday bo‘lsa-da “A’uzu billahi minashshaytonir rojiym” ni namoz ichida aytiladi.

Namoz juda ham ulug‘ ibodat hisoblanadi. Rasululloh (s.a.v) namoz farz bo‘lgan kundan boshlab har kuni besh vaqt namozni jamoat bilan o‘qiganlar. U zot (s.a.v)ning har bir namozlari minglab kishilar tomonidan sinchkovlik bilan kuzatib borilgan. Agar “omin” ni ovoz chiqarib aytish afzal bo‘lganida, U zot bu narsani bayon qilgan bo‘lar

¹⁵ <https://mirarabmadrassa.uz/oz/news/150>

¹⁶ <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/raddiya-fotiha-surasi-dan-keyin-omin-ni-maxfiy-aytish>

¹⁷ <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/raddiya-fotiha-surasi-dan-keyin-omin-ni-maxfiy-aytish>

¹⁸ <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/raddiya-fotiha-surasi-dan-keyin-omin-ni-maxfiy-aytish>

¹⁹ Faxriddin Usmon ibn Ali Zayaliy Hanafiy. Tabyiynul haqiqi sharhi kanzil daqiq. — Pokiston: Maktabatu imdadiyya. — 114 b.

va orada hech qanday shubha qolmas edi. Holbuki, U zot (s.a.v)ning o'zlari imomlik qilayotganlarida, ba'zan ta'lim uchun birinchi safdagilar eshitadigan qilib, "omin" deganlaridan boshqa hech bir dalil yo'q. Aynan imomga iqtido qilgan kishilarning "omin"ni ovoz chiqarib aytganlari haqida hech qanday rivoyat yo'q²⁰.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, boshqa mazhablarda hujjat qilinadigan "Omin"ni jahriy (ovoz chiqarib) aytilishi haqida kelgan hadislarni hanafiy ulamolar Rasululloh ta'lim uchun aytganliklarini qayd etganlar.

Ominni jahriy yoki maxfiy aytishdagi ixtilofdan boshqa yana bir ixtilof bor. Fuqaholar fотиha surasidan keyin ominni aytish imomga ham unga ergashuvchiga ham yolg'iz o'quvchiga ham qiroati jahriy namozda sunnat ekanligiga ittifoq qilishgan. Faqat qiroati maxfiy namozda imomga ergashuvchi ominni aytish aytmasligida ixtilof bor²¹.

Ulamolar agar imomga ergashgan kishi fотиha surasini eshitsa, aytadi deganlar. Bunday holatda agar qiroati maxfiy bo'lgan namozda imomga ergashuvchi fотиha surasini eshitolmasa (ya'ni birinchi safda bo'lsa eshitishi mumkin, saf o'rtasi yoki oxirlarida bo'lsa eshitolmaydi) aytmaydi, degan xulosaga kelinadi²².

Hanafiy fuqaholar esa imom ham imomga ergashuvchi namozxon ham fотиha surasidan keyin ominni ichida maxfiy tarzda aytadi deyishgan²³.

XULOSA

"Omin"ni maxfiy aytish masalasi oyat va hadisga to'liq mos keladi va Payg'ambarimizning sunnatidir. Mazhablar orasidagi ixtilof esa hadisdan hukm olish borasida turlichadir. Fiqh bir narsani daqiq joyigacha tushunish degan ma'noni bildiradi va aynan shu ma'noda aytish mumkinki, har bir kishining masalaga yondashuvi va yechimi har xil bo'ladi ya'ni fikrlashi har xildir. Hanafiy ulamolar bu mavzuda oyat va hadisga suyangalar, qiyosga hojat ham qolmagan²⁴.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Husayn Ahmad ibn Foris ibn Zakariyyo ar-Roziy. Hilyatul fuqaho. — Bayrut: Sharikatul muttahida, 1983. — 272 b.
2. Abu Sulaymon Ahmad ibn Muhammad al-Xattobiy. Maolim as-sunan. — Halab: Tobaqotul alamiyya, 1932. — 328 b.
3. Abul Ixlos Hasan ibn Ammor Shurunbulaliy. Nurul izoh. — Bayrut: Maktabatul asriyya. 193 b.

²⁰ <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/raddiya-fotiha-surasi-dan-keyin-omin-ni-maxfiy-aytish>

²¹ حكم التأمین بعد قراءة سورة الفاتحة في الصلاة - الفتاوى - دار الإفتاء المصرية - دار الإفتاء

²² Shayx Zayniddin ibn Ibrohim ibn Muhammad Hanafiy. Bahrur roiq sharh kanz daqiq. — Bayrut: Dorul maktabatil amaliyya, 1987. — 548 b.

²³ Muhammad Oshiq. at-tashil ad-doruriy limasoil al-Quduriy. — Madina: Doruz zamon. — 47 b, Abul Ixlos Hasan ibn Ammor Shurunbulaliy. Nurul izoh. — Bayrut: Maktabatul asriyya. 60 b, Abu Abdulloh Muhammad ibn Muhammad Koshg'ariy Hanafiy. Munyatul musolliy va g'uniyatul muftadiy. — Damashq: Dorul iqno, 2007. — 196 b.

²⁴ <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/fotihadan-keyin-omin-aytish-masalasi>

4. Faxriddin Usmon ibn Ali Zayaliy Hanafiy. Tabyiynul haqiq sharhi kanzil daqiq. — Pokiston: Maktabatu imdadiyya. — 354 b.
5. Muhammad Oshiq. at-tashil ad-doruriy limasoil al-Quduriy. — Madina: Doruz zamon. — 585 b.
6. Shayx Nuriddin Xoliqnazar. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. — Toshkent: Matbaachi, 2024.— 408 b.
7. Shayx Zayniddin ibn Ibrohim ibn Muhammad Hanafiy. Bahrur roiq sharh kanz daqiq. — Bayrut: Dorul maktabatil amaliyya, 1987. — 671 b.
8. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. — Toshkent: Sano standart, 2021. — 624 b.
9. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muhammad Koshg'ariy Hanafiy. Munyatul musolliy va g'unyatul mubtadiy. — Damashq: Dorul iqno, 2007. — 268 b.
10. Lutfulloh Nasafiy. Fiqhi Kaydoniy. — Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2010. —120 b.

SAYTLAR RO'YXATI

11. <https://mirarabmadrassa.uz>
12. www.dar-alifta.org
13. <https://www.sammuslim.uz>
14. <https://www.islamweb.net>